



## NEOLOGIZMLARGA DIAKRONIK YONDASHUV

**Muallif:** O'rmonova Maftuna Farhodjon qizi<sup>1</sup>

**Affiliyatsiya:** Farg'onha Davlat Universiteti tayanch doktoranti<sup>1</sup>

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15173443>

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida neologizmlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va ularning diaxronik o'zgarishlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ijtimoiy, texnologik va madaniy o'zgarishlar natijasida yuzaga kelgan yangi so'zlarning tilga ta'siri ko'rib chiqiladi. Natijalar shuni ko'rsatadi, har bir tilning neologizmlarni shakllantirish usullari va ularni qabul qilish darajasi milliy madaniyat va global jarayonlarga bog'liqdir. Maqola neologizmlarning til rivojidagi ahamiyatini yoritishga qaratilgan.

**Kalit so'zlar:** Neologizm, diaxronik tahlil, globalizatsiya, texnologik rivojlanish, til o'zgarishi, xalqaro atamalar

### KIRISH

Neologizmlar tilshunoslikda yangi paydo bo'lgan so'zlar, iboralar, atama yoki so'z birikmasini ifodalaydi. Ular odatda ijtimoiy, texnologik va madaniy o'zgarishlar natijasida yuzaga keladi. Ushbu maqolada neologizmlarning diaxronik o'zgarishlari, ya'ni vaqt davomida qanday rivojlanganligi va tilga qanday ta'sir ko'rsatganligi o'rganiladi.

### ADABIYOTLAR SHARHI VA METODOLOGIYA

Neologizmlarni o'rganishda ko'plab boy va qimmatli manbalar mavjud.

Fifty years among the new words – 1941-1991 – ushbu lug'at 50 yil davomida ingliz tilida paydo bo'lgan 5 000dan ortiq yangi so'z va iboralarni o'z ichiga olgan bo'lib, ularning kelib chiqishi, qanday omillar asosida shakllanganligi va qanday kontekstda qo'llanilishi ilmiy jihatdan tahlilga tortilgan. [1]

English as a global language – ushbu kitobda ingliz tilining global o'sishi va bu jarayonda neologizmlarning tutgan o'rni batafsil yoritilgan. Kitobda ingliz tilining xalqaro til sifatidagi ahamiyati ham muhokama qilingan. [2]

A.Solijonov O'zbek tilida neologizmlarning shakllanish xususiyatlari nomli maqolasida o'zbek tilida neologizmlarning shakllanishi va qo'llanilish xususiyatlari yoritilgan. Muallifning fikricha, o'zbek tilida yangi so'zlarning shakllanishi asosan xalqaro atamalarni moslashtirish orqali amalga oshiriladi. [3]

N.Mirzayeva tomonidan esa globalizatsiya davrida o'zbek tilining rivojlanishi va neologizmlarning tilga ta'siri chuqur tahlil qilingan. Muallifning Globalizatsiya davrida o'zbek tilining rivojlanishi maqolasi tildagi paydo bo'layotgan neologizmlarning milliy xususiyatlarining ahamiyatini ko'rsatadi. [4]

Tadqiqotda diaxronik tahlil usuli qo'llanilgan. Ingliz va o'zbek tillaridagi neologizmlar lug'ati, ilmiy maqolalar va matnlar o'rganilgan. Olingen ma'lumotlar sintez qilinib, ularning kelib chiqishi, qo'llanilishi va ijtimoiy-madaniy konteksti tahlil qilingan. Shuningdek, neologizmlarning qabul qilinishi va ommalashish jarayoni o'rganilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ingliz tilidagi neologizmlar asosan texnologik va ilmiy rivojlanish natijasida yuzaga kelgan. Masalan, *selfie (selfi)*, *cryptocurrency (kriptovalyuta)* va *cloud computing (masofaviy hisoblash)* kabi so'zlar oxirgi o'n yillikda keng qo'llanila boshladi. Ularning paydo bo'lishi axborot texnologiyalari sohasidagi o'zgarishlar bilan bog'liq.

O'zbek tilida esa ko'proq xalqaro atamalarni o'zlashtirish jarayoni kuzatiladi. *Internet, blogger, marketolog* kabi so'zlar to'g'ridan-to'g'ri o'zbek tiliga qabul qilingan. Shuningdek, yangi so'zlarning so'z yasash yo'li orqali paydo bo'lishi ham kuzatiladi. Masalan, *axborotlashuv, raqamlashtirish* kabi atamalar so'z yasovchi qo'shimchalar orqali hosil qilingan.

Neologizmlar har bir davrda o'ziga xos bo'lган ehtiyojlarga javoban paydo bo'ladi. Masalan, mustaqillikdan oldin ko'plab ruscha so'zlar neologizm sifatida qabul qilingan. Istiqloldan keyingi davrlarda esa ingliz tilining xalqaro dominant til sifatida e'tirof etilishi natijasida shbu tilga oid ko'proq yangi so'zlar o'zlashmoqda. Bu holat globalizatsiya va texnologik rivojlanish bilan bog'liq.

O'tkazilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, neologizmlarning shakllanishi va rivojlanishi global jarayonlarning tilga ta'sirini yaqqol namoyon etadi. Ingliz tilidagi neologizmlar asosan texnologik rivojlanish mahsuli bo'lsa, o'zbek tilida ularning qabul qilinishi ko'pincha madaniy va ijtimoiy ehtiyojlarga asoslanadi. Shu bilan birga, yangi so'zlarning ko'pchiligi xalqaro jarayonlar bilan bog'liq bo'lib, ularning tilda ommaviylashish tezligi milliy siyosatga ham bog'liq ekanligi kuzatiladi.

## MUNOZARA

Ingliz va o'zbek tillaridagi neologizmlar o'rtasidagi asosiy farq ularning shakllanish manbalarida kuzatiladi. Ingliz tilida yangi so'zlar ko'pincha mavjud so'zlarni birlashtirish yoki ularni qisqartirish orqali yaratiladi. O'zbek tilida esa chet tillaridan so'z olish yoki o'zlashma so'zlarni moslashtirish asosiy usul hisoblanadi.

Neologizmlarning qabul qilinishi til madaniyatni va jamiyat ehtiyojlariiga ham bog'liq. Ba'zi so'zlar tez ommalashgan bo'lsa, ba'zi atamalar faqat maxsus sohalarda ishlataladi. O'zbek tilida esa yangi so'zlarning ommalashuvi ko'pincha davlat siyosati va rasmiy terminologiya bilan belgilanadi.

## XULOSA

Neologizmlar tilning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Neologizmlarga diaxronik yondashuv asosida o'rganish shuni ko'rsatadiki, ular ijtimoiy, iqtisodiy va texnologik o'zgarishlarni aks ettiradi. Ingliz va o'zbek tillaridagi neologizmlarning paydo bo'lishi va rivojlanishi ularning ijtimoiy-madaniy kontekstini yorqin aks ettiradi. Kelgusida ushbu mavzuda qo'shimcha tadqiqotlar o'tkazish til o'zgarishlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Algeo J. Fifty years among the new words: A dictionary of neologisms, 1941–1991. – Cambridge: Cambridge University Press, 1991. – 267 p.
2. Crystal D. English as a Global Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 228 p.
3. Solijonov A. O'zbek tilida neologizmlarning shakllanish xususiyatlari // Tilshunoslik tadqiqotlari, 4-jild, 2-son, 2018. – B. 45-52.
4. Mirzayeva N. Globalizatsiya davrida o'zbek tilining rivojlanishi // O'zbekiston filologiya jurnali, 1-jild, 3-son, 2020. – B. 12-19.
5. O'rmonova M. Neologizmlarning til rivojiga ta'siri (ingliz va o'zbek tillari misolida) // "FarDU. Ilmiy xabarlar" jurnali, 30-jild, 4-son, 2024. – B. 295-298.
6. O'rmonova M. Ingliz tili neologizmlarning tarqalishida asosiy til vositasi sifatida // Iqro indexing, 11-jild, 2-son, 2024. – B. 573-576.
7. O'rmonova M. Neologizmlar tadqiqining ahamiyati // "Madaniyatlararo muloqotni o'qitishda lingvodidaktikaning zamonaviy yondashuvlari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani. FarDU – 2024. – B. 1182-1186.
8. O'rmonova M. Ijtimoiy tarmoq neologizmlari // Qo'qon DPI ilmiy xabarları. 1-son. 2025. – B. 766-771.
9. O'rmonova M. Neologizmlarning sotsiolingvistik asoslari // Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. 2-jild, 4-son. 2025. – B. 91-94.

